

GLOBALLASHUV JARAYONIDA KIBER TAXDIDLARNING YOSHLARIMIZ TARBIYASIDAGI AXAMIYATI

*IV Akademiyasi 3-bosqich kursanti
Raximov Abduqahhor Vohidovich*

Annotatsiya: Mazkur maqola globallashuv jarayonida yoshlarimiz ongida internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish hamda yoshlarimizning axborot texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirish shuningdek internetning zamonaviy va an'anaviy madaniyatga ta'siri haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Globallashuv, axborot texnologiyalari darslari, internetdan foydalanish.

Abstract: This article talks about the formation of the culture of using the Internet in the minds of our youth in the process of globalization and the development of features such as the purposeful and systematic use of information technologies by our youth, as well as the impact of the Internet on modern and traditional culture.

Key words: globalization, information technology classes, Internet use

Аннотация: В данной статье говорится о формировании культуры использования Интернета в сознании нашей молодежи в процессе глобализации и развитии таких особенностей, как целенаправленное и систематическое использование нашей молодежью информационных технологий, а также влияние Интернета по современной и традиционной культуре.

Ключевые слова: глобализация, занятия по информационным технологиям, использование Интернета.

Hozirgi axborot asrida internet tarmog'ida yoshlarimizning xavfsizligini ta'minlashning samarali yo'li undan foydalanish madaniyatini rivojlantirish va tizimli yo'lga qo'yish hisoblanadi. Shuni inobatga olib ta'kidlash joizki, bugun internet olamida keng uchrayotgan kiberjinoyatlar, buzg'unchiliklar, terrorizm, ekstrimizm kabi yod g'oyalarni targ'ib qiluvchilar foydalanuvchilarning aynan internet madaniyati me'yorlariga rioya qilmasligi oqibatida yod yo'llarga kirib ketayotganligini afsuski guvohi bo'lmoqdamiz. Shuni unutmaslik kerakki hozirgi vaqtda yoshlarimiz ma'naviyatiga qarshi qaratilgan bir qarashda razimas bo'lib ko'rinadigan kichik bir xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, zararini hech qanday vosita bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan zarar yetkazishi hech birimizga sir emas. Mamlakatimizda ta'lim sohasida so'ngi yillarda bir qancha islohotlar amalga oshirilib kelinmoqada bularning barchasi yoshlarimizning bilim darajasini yanada oshirish globallashuv jarayonida jahon standartlariga javob

beradigan darajada bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun amalga oshirilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki hozirgi yoshlarimiz orasida ma'naviy jihatdan ortda qolgan yoki bilim saviyasi yetmasligi deymiz shu kabi bir qancha omillar orqali yoshlarimiz internet tarmog'ida buzg'unchilikni, terrorchilikni, axloqsizlikni va shu kabi bir qancha yod illatlarni targ'ib qiluvchilar domiga tushib qolayotganligi achinarli holatlarimizdan biri hisoblanadi. Hozirgi axborot asrida internetning ko'plab salbiy oqibatlarining guvoh bo'lmoqdamiz, yoshlarimizda internet madaniyating pastligi, turli ijtimoiy tarmoqlardan kelgan axborotlarni yaxshi yoki yomonligini farqiga bora olmayotganligi va yana bir qancha salbiy omillar tufayli g'arazli kimsalarning ta'siriga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun yoshlarimizga maktab yoshidanoq internet faqat yaxshi narsa ekanligini unda faqat yaxshi narsalar emas yomon axborotlar ham kelib turishini tushitirishimiz kerak. E'tiborli jihai axborotdan foydalanish jarayonida qancha axborot xavfsizligiga ishonsak ham ular baribir xavfsiz emas. Xususan, Eng mustahkam qulflar ham buziladi Amerikaning yirik internet kompaniyasi *Google* va Xitoy hukumati o'rtasida kechayotgan bahslar mavzusi ham shu. Kompaniya senzura va kiber-xurujlardan shikoyat qilib, Xitoydagi idorasini yopishga qaror qilgan. Har bir kompaniya, deydi Xitoy rasmiylari, mahalliy qonunlarga bo'ysunishi shart. Rasmiy Pekin nazarida Amerika hukumati ham butun dunyoga erkinlik haqida jar solib, o'z qarashlarini boshqalarga o'tkazish harakatida. Lekin osiyoshunos olimi Rebekka Makkinnon tahlil qilishicha: "Internetda xitoyliklar orasida bo'layotgan suhbatlarni kuzatsangiz, aniq bir xulosaga kelasiz: Internetdan foydalanuvchilar *Google* bilan juda yaxshi tanish. Kompaniya AQShda joylashganini hamma biladi. Xitoyda Amerika tashqi siyosatini tanqid qiladiganlar ko'p, lekin internetga kirib-chiqib yurganlar *Google*-dan har kuni foydalanadi, kompaniyaning hurmati bor". *Google* Xitoy bozorida yuzlashayotgan muammolar sabab, deydi tahlilchi Stiven Yeyts, internet erkinlikligi yuzasidan bahs-munozara qizimoqda. "Xitoyda huquq oyoq osti bo'layotgani, hukumat fuqarolar hayotini to'la nazorat qilishga urinishi yangilik emas. Masala boshqa bir jihati bilan muhim. "Qator boshqa jamiyatlar qatorida Xitoy ham internetga filtr qo'yib, undagi ma'lumotni cheklab, ichki iste'mol uchun moslashtirib olgan. Lekin, to'g'risi, global sahnada yetakchi bo'laman degan davlatga bu yarashmaydigan ish". Internet qanchalik bosim ostiga olinmasin, yopiq jamiyatlar uchun dunyoga darvoza. To'siqlarni yorib o'tish kuchiga ega. Shu bois Amerika internet kompaniyalariga Kuba, Sudan va Eronga internet orqali xizmat ko'rsatishga ruxsat berilgan. Bu davlatlar bilan savdoning boshqa turlari cheklov ostida.

Amerika Davlat kotibasi Xillari Klinton nazarida, iqtisod nuqtai nazaridan siyosiy va tijoriy senzura jamiyatga birdek ziyon. Mahalliy bizneslar global muhitdan xabardor bo'lsagina chet el kompaniyalari bilan raqobatlasha oladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, kamchiliklarimizni bartaraf etish choralari ko'rib chiqishimiz lozim, biz

bilamizki maktablarimizda boshlangich sinfdan boshlab ko'plab fanlar o'qitilib kelinadi shu bilan birgalikda yoshlik paytidan kattalarga xurmat kichiklarga izzat, yoshi kattalarni ko'rganda "Assalomu alaykum" deyishni, dasturxon oldiga yig'ilganda yoshi kattalardan oldin qo'l uzatmaslikni va shu kabi yana bir nechta saboqlarni ongimizga singdirishadi va yosh avlod oq qora nimaligini asta sekin anglab borishadi bularning barchasini inobatga olib shuni aytish maqsadga muvofiq deb o'ylayman yani maktablarimizda har bir sinfnig yoshini inobatga olib ularning salohiyatini anglagan holda yangi bir fanni yani "Internet odobi" deb nomlangan fanni kiritish lozim. Hozirgi axborot asrida hamma soha rivojlanib borayotganligi hech birimizga sir emas, ushbu rivojlanishlaring hammasi ham yaxshilikka, yuksaklikka chorlaydi deyish noto'g'ri. Yoshlarimizning ongini ezgu fikrlar, ezgu amallar bilan hamohang ravishda olib borishimiz lozim. Maktablarda intertendan qanday foydalanish? qanday saytlar mukin-u qanday saytlar taqiqlanganligini shuningdek internet olamida oziga kerakli bilimlar egalash, ulardan kelajakda samarali foydalana olish va yana shu kabi foydali bilim va ko'nikmalarni shaklantirish asosiy maqsad ekanligini inobatga olib yuqoridagi fanni darsliklar qatoriga qo'shsak biz o'ylagan maqsadga erishishimiz mukin. Qolaversa, din ortiga berkinib, dinni niqob qilib "xalifalik" yo "islom davlati" qurish kabi turli buzg'unchi g'oyalarni internet orqali butun dunyoda tarqatishmoqda. Jang maydonlaridagi ta'sirli lavhalarni internetda tarqatib, odamlar ongiga bosim o'tkazib, o'z saflarini kengaytirmoqda. Shuning uchun butun dunyo islom ulamolari nazdida bu kabi da'volarga ergashish botil ekanligini yoshlar tushunib olishlari zarur. Bunday fitnalar ortida turgan, jangarilar va ularni to'daboshisini ham boshqarayotdan o'rtadagi uchinchi shaxslar ham mavjudligini yodda tutishimiz kerak. Ular har ikki tomonni nizo va kurashlar ummoniga tashlab, o'zlari bundan ustalik bilan g'arazli maqsadi yo'lida foydalanayotgan uchinchi qo'l haqida Prezidentimiz: "Bunday nozik damlarda uchinchi qo'lnig makkorona, pinhoni harakatini unutmaylik! Ularning tegirmoniga suv quymaylik", deya ogohlantirgan edilar.

Turli ixtiloflar, insonlar bir-birlarining qonini to'kishlari, sof Islom tarixini, muqaddas tushunchalarini o'zgartirib, buzib talqin qilish hamda buni ortidan islom dini va musulmonlarni yomon otliq qilib ko'rsatish faqatgina ana shu uchinchi qo'lnig manfaatlarini asosida qurilganini hamma, ayniqsa, yoshlar zinhor unutmasligi zarur. Internet orqali turli ijtimoiy tarmoqlarda barchani tashvishga solayotgan bu kabi xatarlarga qarshi turish, to'g'ri yo'ldan sobit bora olish, qolaversa, bunday xurujlarga munosib javob qaytara olish, nafaqat yoshlarimiz, balki barchamiz uchun e'tiborga molik dolzarb vazifadir.

Butun dunyo tan olgan yurtimiz ulamolari Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino singari ko'plab buyuk bobokalonlarimiz davrlarida faqat sham yorug'ida dunyo tamaddunida o'chmas iz qoldirgan asarlar yozilgan. Bugungi yoshlarimiz esa eng so'nggi axborot

texnologiyalaridan foydalanish mumkin bo'lgan davrda yashamoqda. Shu bois, yoshlar internetdan to'g'ri va oqilona maqsadlarda foydalanishi yurtimizdan ilmi, yuksak salohiyatli mutaxassislar yetishib chiqishiga muhim vositalardan biri bo'la oladi. Zamon talabidan kelib chiqib maktablardan keyingi ta'lim bosqichlarida ham ushbu tizimni yanada mukammallashtirib borish lozim deb o'ylayman chunki yoshlarimizning yil sayin salohiyati oshib yuksalib boradi shularni barchasini inobatga olib yangi darsliklar ishlab chiqib ta'lim tizimimizga joriy etishimiz biz o'ylagan asosiy maqsadga erishishimizga ko'maklashadi.

Ma'lumki, dunyoda g'oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog'lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma'naviy – ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon – atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo'rlik bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarama qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o'zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g'animlarning g'arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g'oya targ'iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi" ekanligi to'g'risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur. Umuman, bugungi kunda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari salbiy ta'sirining oldini olish uchun yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirish, iqtidorli va iste'dodli bolalarning o'z ijodlarini erkin namoyon etish va axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko'proq tuzib, yoshlarga mo'ljallangan turli mavzular bo'yicha maqsadli loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda jamiyat hayotining modernizatsiyalashish sharoitida jamiyatda ma'naviy sohada quyidagi vazifalarni ham bajarishimiz maqsadga muvofiqdir: yoshlarimizni ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish; turli qarash va fikrga ega bo'lgan yoshlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, yagona Vatan tuyg'usi, adolat - qonun ustuvorligida, xalq roziligi, jaholatga qarshi ma'rifat, innovatsion taraqqiyotni ta'minlash barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas

maqsadga aylanishiga erishish, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlash; otabobolarimiz dinining gumanistik mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish borasidagi ishlarni davom ettirish XXI asrda davlatimizning ravnaqi, uning kuchi hamda salohiyati ko'p jihatdan xalq ma'naviyatining yuksakligi va pokligiga, yoshlarimizning intellektual savodxonligiga, ular ongi, ichki dunyosi va qalbida milliy g'oyaning rivojlanganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda esa internet tizimining ijtimoiy tarmog'idan tarqatilayotgan turli xil yot g'oyalarga qarshu mafkuraviy immunitetining nechog'liq shakllanishiga bevosita aloqadordir. Ushbu internet foydalanuvchilarining, axborotlar iste'molchilarining katta qismi yoshlar hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarimiz qanday ma'lumotlarni qabul qilishmoqda, ularning axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qanday resurslar qondirmoqda, nega "virtual qullik" iskanjasiga tushib qolishmoqda kabi muhim va dolzarb savollar o'rtaga tashlanmoqda. Tadqiqotchi Hilmiy Xidir Soriy "Internet orqali bog'lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri" mavzusida 471 kishi o'rtasida o'tkazgan so'rovlar natijalariga ko'ra, internetga mutelik oqibatida ijtimoiy va ruhiy yolg'izlik muammosi ko'payayotgani aniqlangan. Sarosima, tushkunlik, xavotir, farzandlarning internet bilan mashg'ulligi sababli yosh oilalardagi kelishmovchiliklar, yoshlarning oila a'zolari bilan aloqalari beqarorlashuvi ushbu muammoning asosiy alomatlari sifatida ko'rsatilmoqda. Internet va virtual olamning ijobiy tomonlarini rivojlantirish masalasi qanday hamda ushbu global muammoning yechimi nimada? Xususan, mamlakatimizda yoshlarning virtual olamda, ijtimoiy tarmoqlarda, internet kengliklaridagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun nima qili zarur? Bu borada fact checking (axborot tahlili), tanqidiy fikrlash, ma'lumotlarni qidirish sintezi va axborot savodxonligi dolzarb masalaga aylanadi. Bugungi yoshlarimiz-tengqurlarimiz orasida virtual muhit afzalliklarini oshirish, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va ushbu resurslarda o'tkazgan vaqtlarini bilimga aylantirishni, shaxsiy rivojlanish platformasi sifatida talqin ettirish, ushbu yaratilgan inson kamoloti uchun kerak ekanligi orqaligina yuqorida qayt etib o'tgan muammoga oqilona yechim berishimiz mumkin. Ya'ni, yechim – yoshlarimizga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muhitlar bilim olish manbai ekanligini tushuntirish, shaxsiy rivojlanishda, tashqi dunyo bilan bilvosita muloqot qilishda va bu orqali dunyoqarashni kengaytirishda keng imkoniyatlar berishini anglatishimiz hamda eng asosiysi, o'zbek milliy internet kengliklarida ma'naviyatimizga xos, bilim ulashadigan, o'zbekona qadriyatlarimizni mujassam etadigan, kreativ, ruhlantiruvchi, zamonaviy media-resurslardan foydalanilgan media-kontentlarni ko'paytirishimizdir. Biz aynan shu usul orqaliga bugungi yoshlarimizning virtual muhitdagi "hayot"larini ijobiy tomonga o'zgartirishimiz mumkin bo'ladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilgan e'tibor so'ngi yillarda davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi ta'limga berilayotgan imkoniyatlarni yanada ko'paytiradi.

Shuhlarni inobatga olgan holda hamda xorij davlatlarining tajribasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak barcha maktablarimizda multimedia imkoniyatlaridan va zamonaviy axborot texnologiyalaridan, slayd va intrefaol usullarni qollagan holda darlarimizni tashkil etish orqali yoshlarimizning bilim va ko'nikmasini yanada takomillashitirib borishimizga yanada keng imkoniyatlar ochiladi. Masalan aytaylik boshlang'ich sinf o'quvchisi O'qish kitobida berilgan bir hikoya yoki ertak va yana shunga o'xshash asar va hakoazolarni bosh qaxramonlarini multimediya imkoniyatlaridan foydalangan holda yoki osha mavzuga oid slaydlar tayyorlagan holda darslar tashkil etilsa o'quvchining xotirasida saqlab qolishi va keyinchalik aynan o'sha mavzuga oid ma'lumotlarni bemalol aytib bera oladi yani o'quvchining ko'z oldida obrazlar qayta gavdalanadi. Misol tariqasida adabiyot fanini keltirib o'tdim lekin yuqoridagi kabi inovatsion usullarni hamma fanlarga bemalol qollay olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz/> (Normativ hujjatlar bazasi)
2. www.google.com (Butun jahon qidiruv tizimi)
3. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar ba'zasi)
4. <https://cyberleninka.ru/> (Elektron kutubxona)
5. <https://www.natlib.uz/> (Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi)
6. <https://aniq.uz/uz> (yangiliklar)